

**BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA
SO'ZLARNING SHAKL MA'NO TURLARI VA O'RGATISH
METODIKASI**

Abdiraimova Xusnobod

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10029968>

ARTICLE INFO

Received: 14th Oktober 2023

Accepted: 19th Oktober 2023

Online: 21th Oktober 2023

KEY WORDS

So'z, ma'no, ma'nodosh so'z, zid ma'noli so'z, shakldosh so'z, ko'p ma'noli so'z.

ABSTRACT

Ushbu maqola boshlang'ich sinf ona tili darslarida so'zlarni shakl va ma'no turlari va ularni o'rgatish metodikasi va didaktik o'yinlardan iborat. Bu maqola o'quvchilarni og'zaki va yozma nutq boyligini oshiradi. So'z ma'nolarini bosqichma – bosqich o'quvchilarda oshirib borilsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

So'zlarni ma'nosini tushuntirish o'quvchilar so'z boyligini oshiradi, og'zaki va yozma nutqini o'stiradi. So'zning ma'nosini tushunish o'quvchilar uchun juda muhim chunki so'zni bir emas, bir necha ma'nosi bo'lishi mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga so'zlarning shakl va ma'no turlariga ko'ra uchta turi o'rgatiladi. Bular quydagilar:

1. Ma'nodosh so'zlar;
2. Zid ma'noli so'zlar;
3. Shakldosh so'zlar.

Ma'nodosh so'zlar(sinonimlar)-shakli har xil ammo ma'nosi bir xil yoki ma'nosi bir – biriga yaqin so'zlarga ma'nodosh so'zlar deyiladi. Masalan: osmon, ko'k, samo kabi so'zlar. Ma'nodosh so'zlar tilni liksik tarafdin boyitadi, shuning uchun bunday so'zlar bilan ishlash juda muhim. Bolalar lug'atida qancha sinonim so'zlar ko'p bo'lsa, tilning ifodaligi va jozibasi ortadi. Boshlang'ich sinflarda sinonim so'zlar haqida qisqachagina ma'lumot beriladi. Asosan, amaliy mashqlar yordamida shakllantiriladi. Ma'nodosh so'zlar bilan ishlash 1-sinfdanoq boshlanadi va berilgan so'zning ma'nodoshini topishga, 2-3-sinflarda bir nechta ma'nodoshini topib aytishga o'rgatiladi.

Ma'nodosh so'zlarni o'rgatishda bir nechta mashq turlaridan foydalaniladi: berilgan ma'nodosh so'zlarni guruhlash, berilgan so'zga ma'nodosh tanlash, tushirib qoldirilgan ma'nodosh so'zlarni o'z o'rniga qo'yib, matnni ko'chirish, ma'nodosh so'zlardan mosini qo'yib gaplarni ko'chirish, ma'nodosh so'zlar qatoridan foydalanib didaktik materiallar tuzish va u bilan mashq qilish kabi mashq turlaridan foydalaniladi.

Ma'nodosh so'zlarni o'rgatishda turli metod va didaktik o'yinlardan foydalaniladi. Masalan: "Xotira" o'yini bunda o'quvchilar ma'nosh so'zlarga ma'nodosh so'z qo'shib boradi.

O'yinning maqsadi: o'quvchining so'z ma'nolari haqidagi bilimlarini va so'z boyligini oshirish va xotirasini mustahkamlash, diqqatini jamlashga o'rgatish.



Bu o'yin yakka va guruh bo'lib o'ynaladi.

- 1.yuz;
- 2.yuz,bet;
- 3.yuz,bet,chehra;
- 4.yuz,bet,chehra,aft;
- 5.yuz,bet,chehra,aft,bashara;
- 6.yuz,bet,chehra,aft,bashara,oraz.




Zid ma'noli so'zlar-bir-biriga qarama –qarshi ma'noli so'zlarga zid ma'noli so'zlar deyiladi.Birini aytganimizda zidi esimizga keladigan so'zlarga zid ma'noli so'zlar deyiladi.Masalan:katta-kichik,yosh-qari,mehnatkash-dangasa kabi so'zlar.

Zid ma'noli so'zlarni boshlang'ich sinflarga o'rgatish uchun bir necha mashq turlardan foydalaniladi bular quydagilar:berilgan so'zga zid ma'noli so'z tanlash,zid ma'noli so'zlarni qatnashtirib gap tuzish,berilgan so'zga zid ma'noli so'z topib qo'yish,

Zid ma'noli so'zlarni turli o'yin va metodlardan foydalanib o'rgatsa bo'ladi.Masalan: **Zinama-zina" o'yini**

O'yinning maqsadi: o'quvchilarda yozma va og'zaki nutqini rivojlantirish, mavzu haqida egallagan bilimlarini sinovdan o'tkazish, ularda tezkorlikka o'rgatish.

O'yin jihozi: Zina ko'rinishidagi rasm va uning pog'onalariga yozilgan so'zlar. Bu o'yin asosan butun sinf o'quvchilarini ikki guruhga bo'lgan holda o'tkaziladi va bu o'yin o'quvchilarni jamoa bo'lib harakat qilishga va birdamlikni shakllanishiga ham xizmat qiladi



Shakldosh so'zlar-aytilishi,yozilishi,shakli bir xil so'zlarga shakldosh so'zlar deyiladi.Masalan: yosh-ko'z yoshi,yosh-insonning umri; yoz-xat yozmoq,yoz-fasl kabi so'zlar kiradi. Shakldosh so'zlar ikki yoki undan ortiq so'zlar bo'lishi mumkin.Bir so'z turkumida va


farqli soʻz turkumida ham boʻlishi mumkin. Bir xil soʻz turkumida. Masalan: Bastakor changda yangi kuyini chaldi. Chang –toʻzon boʻlayotgani uchun yurishga qiynaldi.

Shakldosh soʻzlarni boshlangʻich sinflarga turli oʻyin va metodlardan foydalanib oʻrgatila. Masalan: “Kim chaqqon” oʻyini.

Oʻyinning maqsadi: oʻquvchilarga yozma nutqini va diqqatini jamlashni oʻrgatadi. Mavzu haqidagi bilimlarini mustahkamlashga oʻrgatadi. Hozirjavoblikka oʻrgatadi. Bu oʻyin guruh yoki yakka holda oʻynaladi. Bu oʻyinda rasmda yashiringan shakldosh soʻzlarni topish kerak.



Soʻz maʼno turlarini mustahkamlash uchun “Charxpalak” oʻyinidan foydalanishimiz mumkin.



References:

1. Karima Qosimova. Safo Matjonov, Xolida Gʻulomova, Sharofat Yoʻldoshova, Sharofjon Sariyev “Ona tili oʻqitish metodikasi. Toshkent. ”Nosir” 2009-yil ,(308-316-betlar);



2. M.E.Toirova "Ona til", 4-sinf darslik 1-qism, "Novda", Toshkent-2023
3. Achilova D. "Boshlang'ich ta'limda didaktik o'yinlardan foydalanishning samaradorligi"
Ma'ruza matni. RTM konferensiya materiali-2020, 252-bet